

JAMOADA HARBIY XIZMATCHILARINING PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH MEZONLARI

Achilov Vadim Elmurodovich

*O‘RHX va MU serjantlar tayyorlash oliy maktabining moddiy-texnik
ta’minot kafedrasi texnik tayyorgarlik sikli katta o‘qituvchisi, podpolkovnik,
Samarqand shahri*

Annotatsiya: Ushbu maqolamda kuch tuzilmalarining milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining psixologik tayèrgarligini takomillashtirishda psixologik barqarorlikni shakllantirishning bir qator omillari asosida olib borish, hamda ushbu omillarni egallash ko‘nikmalarini egallash to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Harbiy xizmatchi, axloqiy, ruhiy, jismoniy tayèrgarlik, shakllanish, professional diqqat.

Bugungi kunda mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, Qurolli Kuchlarni yanada rivojlantirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Shu bois, bugun yurtimizda Qurolli Kuchlar oldiga qo‘yilgan asosiy talablardan biri ham axloqiy-ruhiy ta’minot ishlarining samaradorligini yanada oshirishdir.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyëev 2018-yil 10-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 26 yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan xavfsizlik kengashining yig‘ilishida “Men harbiy xizmatchilarimizning jismonan va ruhiy tayèrgarligi bilan bog‘liq bir qator muammolarga e’tibor qaratmoqchiman. Nega deganda, jismoniy tayèrgarlik harbiy xizmatchilar uchun xizmat faoliyatida, harbiy karyerasida va umuman, turmush tarzida hal qiluvchi omillardan biri bo‘lishi zarur. Harbiy xizmatchilarning ruhiy jihatdan chidamligi bo‘lishi haqida gapirganda, keyingi paytda dunëning turli mintaqalarida sodir bo‘laëtgán qurolli to‘qnashuvlarda ko‘zga tashlanaëtgán bir holatga e’tiboringizni qaratmoqchiman. Ya’ni, jangovar harakatlar davomida shaxsiy tarkib o‘rtasidagi yo‘qotishlarning asosiy qismi kuchli ruhiy ta’sir va zarbalar bilan bog‘liq ekani ma’lum bo‘lmoqda. Bunday ruhiy jarohatlarni hatto tinch sharoitda ham davolash juda murakkab masaladir” deb takidlab o‘tgan edilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA Darhaqiqat, bugungi kunda Qurolli Kuchlarimizda harbiy xizmatchilarni ruhiy jihatdan tayèrlash dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, mamlakat tinchligini va xavfsizligini ta’minlash har bir davlatning eng ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Tinchlik va xavfsizlikni ta’minlashda boshqa davlat organlari bilan bir qatorda O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlarining faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek,



milliy gvardiya bo'linmalari harbiy xizmatchilari jangovar-xizmat majburiyatlarini bajarishda jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini muhofaza qilish bo'yicha har bir shahar va viloyatda xavsiz hudud loyihasida kunu tun uch smenali patrullik rejimida patrulpost xizmati va yo'l-patrul xizmati, blok postlarda xizmat majburiyatlarini bajaradilar.

Xizmat va jangovar vazifalarini bajarish paytida harbiy xizmatchilarning xatti-harakatlari xususiyatlarini o'rganish va tahlil qilish psixika va ekstremal vaziyatlarning ta'sir mexanizmlarini tushunishga va harbiy xizmatchilarning kasbiy tayèrgarligi samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga imkon beradi. O'z navbatida O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchilarining o'quv jaraènida psixologik tayèrgarlikni shakllantirish bo'yicha uslublar, treninglar ishlab chiqish va amalga oshirishni taqazo etadi.¹ Yuqorida ta'kidlangan vazifalarni bajarishda Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari turli xizmat qiyinchiliklariga, ya'ni fuqarolar, huquqbuzarlar, jinoyatchilar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil qarshiliklarga, tazyiqlarga, bildirilgan salbiy munosabatlariga uchrashi mumkin.

Bunday vaziyatlarda harbiy xizmatchilardan xushmuomalada bo'lish, muloqatga kirishib ketish, tezkorlik bilan qaror qabul qilish, qat'iyatli bo'lish, hissiètlarga berilmaslik va kuchli irodali bo'lish kabi psixologik xususiyatlarni egalashni taqazo etadi. Yuqorida ta'kidlangan vazifalarni amalga oshirish o'z navbatida O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchilarining jamoat xavfsizligi va jamoat tartibini saqlash va huquqbuzarliklarning oldini olish faoliyatida psixologik tayèrgarlikni takomillashtirishni taqazo etadi. Psixologiyaga oid adabiètlarda “shakllanish”, “rivojlanish” va “takomillashtirish” tushunchalariga ko'plab tariflar keltirilgan bo'lib, mualliflardan bir qanchasi “rivojlanish” deganda shaxsdagi jadal o'zgarishlar, uning asosiy ehtièj va motivlari, irodasi va boshqa xususiyatlarini tavsiflashga xizmat qiluvchi jihatlarini nazarda tutganlar. “Rivojlanish” tushunchasidan farqli ravishda “shakllanish” ko'pincha tashqi va ichki omillar asosida faol ta'sir ko'rsatish orqali shaxs xususiyatlarining rivojlanishi darajasi sifatida namoèn bo'ladi. Yuqoridagi tushunchalarga yaqin ma'noda “takomillashtirish” tushunchasi “rivojlanish” va “shakllanish” jaraènarining natijasini ifodalaydi.

Harbiy psixologiya sohasida tadqiqotlar olib borgan psixolog Ch.Nasriddinovning ta'rificha, “psixologik tayyrgarlik – harbiy xizmatchi va harbiy jamoalarda jangovar vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan psixologik sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan maxsus chora tadbirlar tizimidir”, deb takidlab o'tgan.

Harbiy sohada ko'plab tadqiqotlar olib borgan harbiy psixolog olim A.G.Karayaning ta'kidlashicha, “Harbiy xizmatchilarning psixologik tayyrgarligi harbiy xizmatchilar va harbiy jamoalarda psixologik fazilatlarini shakllantirish, ularning jang maydonidagi faol va samarali harakatlarga psixologik tayèrgarligini va zamonaviy kurash vositalari ta'siriga qarshilik



ko'rsatishni ta'minlashga qaratilgan o'zaro bog'liq choratadbirlar tizimini aks ettiradi", deb takidlab o'tgan. Aynan psixologik tayèrgarlikning yo'qligi harbiy xizmatchilarda sarosimaga tushish, o'zini boshqara olmaslik, o'zini yo'qotib qo'yish, qo'pollik, dag'allik, qonunni buzish, jiddiy kasbiy buzilishlarga yo'l qo'yish kabi nojo'ya xatti-harakatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Darhaqiqat, psixologik tayèrgarlikning mohiyati psixotravmatik omillar muhitida ayrim harbiy xizmatchilar va harbiy qismlarda jangovarxizmat faoliyatda sodir bo'layotgan voqyealar bo'yicha harakat qilish, tahlikali tendensiyalarni aniqlash, ularga o'z vaqtida va to'g'ri javob berish imkoniyatini beradigan psixologik xususiyatlarni samaradorligini oshirish va faollikni saqlash hisoblanadi. Xorijiy davlatlar armiyalarida psixologik tuzilmalarining tarixi va kundalik faoliyati sinovlar va xatolar, ko'tarilish va qulashlar, turg'unlik va haqiqiy yutuqlarning bebaho tajribasini o'z ichiga oladi. Ushbu tajriba bilan tanishish rus harbiy psixologiyasiga jahon harbiy psixologiya fanida o'z o'rnini baholash, rivojlanishning umumiy yo'nalishi dinamikasi va sodiqligini baholash imkoniyatini beradi. Shu munosabat bilan, jahonning yetakchi harbiy psixologiyasini rivojlantirishning holati, Rossiya Federasiyasi Qurolli Kuchlari imkoniyatlari va eng muhim joylari bilan tanishish imkonini beradi. Jumladan, o'zining dolzarb ahamiyatiga ko'ra rus harbiy psixolog olimi A.G.Karayanining fikriga ko'ra, harbiy psixologiyada harbiy xizmatchilar uchunpsixologik tayyorgarlikning quyidagi turlarini ajratish an'anasi shakllandi:

1. Umumiy psixologik tayyorgarlik-butun harbiy xizmat davomida barcha harbiy xizmatchilar bilan strategik, operativ va taktik darajalarda (zvenolar) amalga oshiriladi va zamonaviy jangovar faoliyatda harbiy xizmatchilarni stress-omillarga psixologik barqarorligini shakllantirishga yo'naltirilgan faoliyat sanaladi.

2. Psixologik barqarorlik umumiy psixologik tayèrgarlikning tarkibi hisoblanadi. Harbiy xizmatchining psixologik barqarorligi - bu shaxsning majmuaviy (kompleks) xususiyati, o'z ichiga kiruvchi tarkibiy qismlar hisoblanadi: motivasion, kognitiv, hissiy-irodali, operativ (tezkorlik) va reguliyativ (boshqaruvchanlik).

3. Yuqoridagi mulohazalardan ko'rinib turibdiki, shaxsning majmuaviy xususiyatlarini va o'zi ichiga olgan tarkibiy qismlarini shakllantirish orqali psixologik barqarorlikka erishiladi. Harbiy xizmatda umumiy psixologik tayèrgarlikni amalga oshirishda bo'linmaning jangovar vazifasidan kelib chiqib tayèrlash maqsadga muvofiq. Chunki tayèrgarlik davrida harbiy xizmatchida bilim, ko'nikma, malakalar shakllanadi, rivojlantiriladi. Eng asosiysi harbiy hizmatchida avvaldan tassurotlar va ko'nikmalar shakllanadi.

Umumiy psixologik tayèrgarlik natijasida harbiy xizmatchi jangovarxizmat faoliyatning murakkab jihatlarini to'g'risida to'liq tushunchaga



ega bo'lishadi. Bunda yangilik, hayrat, kutilmaganlik, noaniqlikning psixologikjarohat ta'siri paydo bo'lishi ehtimoli bundan mustasno. "Tayyor bo'lishi kerak" g'oyasi bilan tavsniqlangan jangovar tayèrgarlikning shaxsiy tuyg'usini shakllantirish, jangovar vaziyatning har qanday omillarini haètiy vazifaga mos keladigan tabiiy deb qabul qilishga imkon beradi. Psixologik tayèrgarlikning maqsad va vazifalarini umumlashtirib shuni ta'kidlash kerakki, jangovar, ijtimoiy sharoitlar jarayonida harbiy xizmatchining miya yarim korteksida aniq tabiiy-geografik, ob-havo-iqlim sharoitida jangovar xizmat vazifalarni hal qilishga qaratilgan funksional tizimlar majmuini shakllantirish zarur.

Bunday funksional tizimlarning mavjudligi harbiy xizmatchilarga har qanday sharoitda ham tanish muhitdagi kabi harakat qilishiga imkon beradi.

Maxsus psixologik tayyorgarlik - maxsus bilimlarni rivojlantirish maqsadida, harbiy xizmatchilarni jangovar faoliyatga bilim, ko'nikma, ekstremal sharoitlarda o'zini tuta olish qobiliyatlarini rivojlantirish samaradorligining jangovar faoliyati bo'lib, harbiy qism va bo'linmalarining jangovar qobiliyatining ahamiyatli darajasini belgilaydi.

Maqsadli psixologik tayyorgarlik - harbiy xizmatchilarda aniq jangovar xizmat vazifalarini bajarishda ularga aniq ustanovkalarni shakllantirishga yo'naltiriladi, shuningdek faollik, psixik kayfiyatni riovojlantirishning sifatli psixologik barqarorlikni samarali hal etishdir. Mazkur tayyorgarlikda, bo'linmaning jangovar xizmat vazifasidan kelib chiqib, harbiy xizmatchilarni jangovar tartibga, jangovar bo'linmalarga, komandalarga taqsimlanadi shuningdek, jangovar va psixologik qobiliyatlarni, shaxsiy tarkibni jangovar tajribasini inobatga olib jamoa vazifalarini bajarishga taqsimlanadi. Harbiy xizmatchilar bunda og'ir iqlim sharoitlariga moslashishi, tog'li va cho'l hududlarida harakatlanish, xavo harorati issiq va sovuq sharoitlarga moslashishda psixologik yordam beradi. Milliy gvardiya bo'linmalarida balandlik tayyorgarligi, cho'lda haraktlanish, dala o'quv mashg'ulotlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi va harbiy xizmatchilarning tayèrgarligi takomillashtiriladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, jahonning rivojlangan armiyalari tajribasida psixologik tayèrgarlikka katta ahamiyati bermoqda. Mazkur mezonlarga bo'lib, harbiy xizmatchilarni psixologik tayèrgarligini tashkillashtirish orqali harbiy xizmatchilarda yuksak psixologik barqarorlikni shakllantirishimiz. Shuningdek kundalik xizmat jaraènlarda harbiy xizmatchilarga yuklatilgan xizmat majburiyatlarni amalga oshirilishi uchun psixologik sharoitlarni yaratladi va psixologik tayyorgarligini takomillashtirish orqali bo'linmalarining jangovar shayligi va jangovar qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi. Qurolli Kuchlari ko'plab jangovar harakatlarda ishtirok etganligini hamda tajribaga ega ekanligini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo'linmalarida psixologik tayèrgarlikning



umumiy, maxsus

va maqsadli turlariga bo'lib, tashkillashtirishni shuningdek, harbiy xizmatchilarda psixologik barqarorlikni shakllantirishning quyidagi motivasion, kognitiv, hissiy-irodali, operativ (tezkorlik) va reguliyativ (boshqaruvchanlik) me'zonlari asosida olib borish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR

1. Jo'rayeva, O. N., & Juraeva, S. N. (2020). Strategies for using alternative assessment methods in language and literature classes. *International Journal of Innovations in Engineering, Research and Technology (IJIERT)*, 141-146.
2. Jo'rayeva, S. N., & Jumayev, S. Q. (2021). Psixologlarning etiket tamoyillari. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti axborotnomasi, 1(13), 95-101.
3. Жўраева, С. Н., Турсунов, Б. С., & Қаландарова, Г. (2021). Оилада турли манипуляция ҳолатларининг намоён бўлиши. ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯДА ИННОВАЦИЯЛАР, 4(4), 62-66.

